

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING QO'LLANILISH AMALIYOTI: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA

Bahodirov Muhammad Umedjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining
magistratura bitiruvchisi, mustaqil izlanuvchilikka nomzod.*

Korrupsiya global muammo sifatida davlatlarning rivojlanishiga katta to'siq bo'lib qolmoqda. Axborot texnologiyalari (AT) va sun'iy intellekt (SI) bu muammoga qarshi samarali vosita sifatida qo'llanila boshlandi. Ushbu tezisda, xorijiy va milliy tajribalarni o'rganish orqali korrupsiyaga qarshi kurashda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Axborot texnologiyalari korrupsiyaga qarshi kurashda turli yo'nalishlarda qo'llaniladi:

- **Shaffoflikni oshirish:** Elektron hukumat va davlat xizmatlari platformalari korrupsion xatti-harakatlarni kamaytiradi.
- **Ma'lumotlarni tahlil qilish:** SI va katta ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari shubhali harakatlarni aniqlashda yordam beradi.
- **Jamoatchilik nazorati:** Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik nazoratining kuchayishi.

O'zbekistonda axborot texnologiyalari va elektron hukumat orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda **muayyan chora-tadbirlar** ko'rilmogda. Masalan:

- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali: Bu portal orqali davlat xizmatlarining ochiqligi va shaffofligi ta'minlanmogda. Fuqarolar va tadbirkorlar uchun xizmatlardan foydalanish qulay bo'lib, korrupsion xatti-harakatlar imkoniyatlarini kamaytiradi.
- Tadbirkorlik subyektlarini elektron ro'yxatga olish: Tadbirkorlik subyektlarining elektron ro'yxatga olinishi orqali korrupsiyaning oldi olinmogda. Bu tizim korrupsion harakatlarni kamaytirish va biznes muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

- Davlat xaridlarining ochiqligi: Elektron tender va davlat xaridlari tizimlari orqali davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash. Bu tizimlar korrupsiyani kamaytirish va davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga yordam beradi.

AT va SI korrupsiyaga qarshi kurashda samaradorlikni oshirishda yana quyidagicha yordam berishi mumkin. Masalan:

- Katta ma'lumotlarni tahlil qilish: Bu orqali shubhali harakatlar tez va aniq aniqlanadi. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.
- Blokcheyn texnologiyalari: Ma'lumotlarning o'zgarmasligi va shaffofligi ta'minlanadi. Blokcheyn texnologiyalari orqali tranzaksiyalarning kuzatilishi va ma'lumotlarning himoyalaniishi ta'minlanadi.
- Mobil ilovalar: Jamoatchilikdan anonim xabarlarni qabul qilish orqali korrupsiyaga qarshi kurash kuchaytiriladi. Mobil ilovalar orqali fuqarolar korrupsiya haqida tez va oson xabar berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 29-iyunidagi PQ-4761-son qaroriga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan bo'lib, ushbu agentli tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda harakatlar olib borilmoqda.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, korrupsiyaga qarshi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan xorijiy ilg'or davlatlar tajribalari o'rganilmoqda. Ularni milliy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur ishlarning natijasi sifatida 2024-yilning 20-22-mart kunlari Agentlik delegatsiyasining Sloveniya davlatiga ishchi tashrifi tashkil etildi.

Sloveniya komissiyasi faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish masalalarida elektron dastur va mahsulotlardan foydalanish tajribasi, ayni paytda komissiya tomonidan Sloveniyaning korrupsiyaga qarshi

kurash bo'yicha ko'p yillik strategik hujjatini shakllantirish jarayoni, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish sohasida qo'llaniladigan elektron dasturlar, davlat xizmatchilari hamda jamoatchilik. xususan, maktabgacha va maktab ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi o'qitish masalalari bo'yicha o'quv kurslarini ishlab chiqish jarayonlari bilan tanishildi. Tashrifning ikkinchi kuni - 21-mart kuni Agentlik vakillari Yozef Shtefan nomidagi ilmiy-tadqiqot institutida bo'lishdi. Muloqot davomida davlat dasturlari monitoringini olib borish yuzasidan tajriba almashildi, shuningdek, faoliyatga axborot texnologiyalari va sun'iy intellektni joriy etish, xabar beruvchilarni himoya qilish bo'yicha Sloveniya tajribasi bo'yicha batafsil axborot berildi. Sloveniyaning elektron hukumat joriy etilishi, ochiq ma'lumotlarning e'lon qilinishi hamda Hukumatda axborot texnologiyalarining joriy etilishi bo'yicha Sloveniya tajribasi bilan tanishish, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanish masalalaridagi amaliyoti bilan tanishildi. Uchrashuvlar yakunida Agentlik faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha hamkorlikning aniq mexanizmlari belgilab olindi.

Aytib o'tish joizki, korrupsiyaga qarshi kurashishda turli mexanizmlarni qo'llash yuzasidan xorijiy davlatlar bilan amalga oshirilayotgan hamkorliklar O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Endilikda bir qator xorij mamlakatlari amaliyotida sun'iy intellekt hamda axborot texnologiyalari korrupsiyaga qarshi kurashda qay yo'sinda qo'llanilayotganligiga quyidagi misollarni ko'rishimiz mumkin.

1. **Estoniya.** Estoniya e-Hukumat tizimini joriy etgan bo'lib, fuqarolar onlayn tarzda ovoz berish, soliq to'lash va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Mamlakat blokcheyn texnologiyasidan o'z ma'lumotlarini himoya qilish uchun foydalanadi, bu esa shaffoflikni ta'minlaydi va korrupsiya imkoniyatlarini kamaytiradi. Estoniyaning X-Road platformasi turli hukumat tizimlari o'rtasida xavfsiz ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi, inson aralashuvini kamaytiradi va korrupsiya imkoniyatlarini pasaytiradi;

2. **Hindiston.** Hindiston o'zining Hukumat e-Bozor (GeM) platformasida davlat xarid jarayonlarini soddalashtirish uchun sun'iy intellektni (SI) joriy etgan. SI xarid ma'lumotlarini tahlil qilib, firibgarlik belgilari, masalan, tenderlarni kelishib olish va yetkazib beruvchilar o'rtasida kelishuv kabi holatlarni aniqlaydi. Ushbu jarayonlarning avtomatlashtirilishi orqali platforma hukumat xaridlarida katta shaffoflik va javobgarlikni ta'minlaydi;
3. **Braziliya.** Braziliyaning Bosh nazorat idorasi (CGU) davlat xarajatlarini nazorat qilish va tekshirish uchun SIDan foydalanadi. SI vositalari moliyaviy operatsiyalar va davlat xaridlarini tahlil qilib, qonunbuzarliklar va potensial korrupsiya holatlarini aniqlaydi. Tizim ortiqcha hisob-kitoblar va davlat mablag'larining noto'g'ri sarflanishi kabi firibgarlik faoliyatlarini fosh qilishda samarali bo'lgan.
4. **Janubiy Koreya.** Janubiy Koreyaning Korrupsiyaga qarshi va fuqarolik huquqlari komissiyasi (ACRC) korrupsiya bilan bog'liq hisobot va shikoyatlarni tahlil qilish uchun SIDan foydalanadi. SI tizimi holatlarni jiddiyligi va korrupsiya ehtimoliga qarab ustuvorlik beradi, resurslar eng muhim masalalarga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Ushbu tizim korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshiradi.
5. **Singapur.** Singapur hukumati fuqarolar va mansabdorlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sirlarni minimallashtiradigan keng qamrovli raqamli xizmatlar strategiyasini joriy etgan, bu esa korrupsiya imkoniyatlarini kamaytiradi. MyInfo platformasi kabi e-xizmatlarda SIDan foydalanish shaxsiy ma'lumotlarni xavfsiz va samarali qayta ishlashni ta'minlaydi, shaffoflikni oshiradi.

Ko'rinib turganidek, axborot texnologiyalari hamda sun'iy intellekt vositalari korrupsiyaga qarshi kurashda asosan shaffoflikni ta'minlash, inson omilini kamaytirish, insonlarning o'zaro muloqotini cheklash asosida O'zbekiston Respublikasi va xorij mamlakatlarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga katta hissa qo'shishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashda axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning

qo'llanilishi katta samaradorlikka erishishda muhim omillar bo'lib qolmoqda. Xorijiy va milliy tajribalarni o'rganish, bu sohadagi yutuqlar va kamchiliklarni tahlil qilish orqali, O'zbekistonda ham samarali kurashish choralari kuchaytirilishi mumkin. Axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish va ularni korrupsiyaga qarshi kurashda faol qo'llash bu boradagi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 29-iyunidagi PQ-4761-son Qarori;
3. <https://anticorruption.uz>
4. The Economic Times. "How AI is Transforming India's Government Procurement." 23.07.2024. economictimes.indiatimes.com
5. ACRC - Anti-Corruption and Civil Rights Commission. "AI in Anti-Corruption Monitoring." 23.07.2024. acrc.go.kr